O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
**BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT**
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal




# Yashil

# Barqarorlik uchun innovatsiyalar:

## Yashil iqtisodiyotga o'tish davrida biznes va tadbirkorlik bo'yicha

OPEN ACCESS
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
Academic Resource Index ResearchBib
OpenAIRE
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
BASE
ROAD
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU

**2025 - yil**
**1-30-aprel**

**RESEARCH AND GRANTS UPDATES**

**NAVBATDAN TASHQARI SON**

https: // gsbe-research.uz/ conferences-ups-uz
conference@gsbe.uz

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 118 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Dunyo sug'urta bozorida yashil xizmatlarning taraqqiyot strategiyalari ........ 7
**Alimov Baxodir Batirovich**

Yashil iqtisodiyot sharoitida amaliy va nazariy treninglar orqali xususiy tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish ........ 14
**Marupov Kabil Komilovich**

O'zbekiston iqtisodiyotini yashillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy holati tahlili ........ 20
**Nurmetova Muyassar**

Econometric assessment of the impact of investments on the economic system of Surkhandarya region ........ 29
**Nurbek Khatamov**

Debt versus tax financing in infrastructure: impact on employment ........ 37
**Raxmatov Firdavs Feruz o'g'li, Kengesbaeva Gulfayruz Azamatovna**

Digital infrastructure and green energy in export diversification: evidence from post-soviet countries ........ 47
**Sadriddinov Ulugbek Jaloliddin ugli**

Jahon savdo tashkiloti doirasida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari: ko'p tomonlama savdo kelishuvlari tahlili ........ 55
**Toshpulatova Malika Ulug'bek qizi**

Развитие финтеха в узбекистане: современное состояние и международный контекст ........ 63
**Адилова Сакинахон**

Yashil iqtisodiyotni innovasion rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash ........ 68
**Rasulova Dilfuza, Kaytarov Voxid**

Gibrid avtomobillar importida to'lovlar undirish amaliyotini takomillashtirish ........ 80
**Kaljanov Baxadir Dauletbaevich**

Стратегии корпоративного управления и привлечения иностранных инвестиций в условиях устойчивой экономики ........ 88
**Фарход Каракулов**

The impact of WTO accession on Uzbekistan's trade policy: in the case of Kazakhstan ........ 102
**Azimjonov Muhammadsoli Muhammadolim o'g'li**

O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlari ........ 110
**Xolto'rayev Islom Ilhomovich**

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR BIZNES MODELLARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI ........ 113
**Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li, Raxmatullayev Sardor Afzal o'g'li**

# YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR BIZNES MODELLARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI

**Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Mustaqil izlanuvchisi

**Raxmatullayev Sardor Afzal o'g'li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Menejment fakulteti, 3-kurs, KB-62/22 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror biznes modellarini shakllantirishda innovatsiyalarning roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsiyalar biznesning iqtisodiy samaradorligi, ekologik mas'uliyati va uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida asoslanadi. Xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, innovatsiyalar, barqaror biznes modeli, eko-innovatsiya, raqobatbardoshlik.

Abstract: This paper examines the role of innovations in shaping sustainable business models under the transition to a green economy. The study substantiates that innovations are a key factor in enhancing economic efficiency, environmental responsibility, and long-term business sustainability. Conclusions and practical recommendations are proposed.

Key words: green economy, innovation, sustainable business models, eco-innovation, competitiveness.

Аннотация: В статье анализируется роль инноваций в формировании устойчивых бизнес-моделей в условиях перехода к «зеленой» экономике. Обосновано, что инновации выступают ключевым фактором повышения экономической эффективности, экологической ответственности и долгосрочной устойчивости бизнеса. Сформулированы выводы и практические рекомендации.

Ключевые слова: зеленая экономика, инновации, устойчивые бизнес-модели, эко-инновации, конкурентоспособность.

## KIRISH

Global miqyosda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, ekologik xavflarning kuchayishi va barqaror rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj iqtisodiy tizimlarning tubdan transformatsiyasini taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi iqtisodiy o'sishni ekologik muvozanat va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan muhim strategik yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Xalqaro tashkilotlar va ilg'or mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida biznes subyektlarining roli, ayniqsa, innovatsion yondashuvlarga asoslangan barqaror biznes modellarini joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy biznes modellarining asosiy maqsadi qisqa muddatli moliyaviy foyda olishga qaratilgan bo'lsa, yashil iqtisodiyot sharoitida bu yondashuv yetarli emasligi ayon bo'lmoqda. Hozirgi sharoitda korxonalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik mas'uliyat va ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlovchi kompleks biznes modellarini shakllantirishga intilmoqda. Bunday modellar resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish hamda "yashil qiymat zanjiri"ni yaratish orqali uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda innovatsiyalar barqaror biznes modellarini shakllantirishning asosiy drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. Texnologik innovatsiyalar (energiya tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, raqamli yechimlar), tashkiliy innovatsiyalar (yangi boshqaruv yondashuvlari, moslashuvchan biznes jarayonlari) hamda institutsional innovatsiyalar (yashil moliya, ESG tamoyillari) biznes faoliyatining ekologik va

iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Natijada innovatsiyalar yashil iqtisodiyot sharoitida biznes subyektlari uchun nafaqat xarajatlarni kamaytirish, balki yangi bozor imkoniyatlarini yaratish va qo'shimcha qiymat hosil qilish omiliga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham "yashil o'sish" va barqaror rivojlanish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish va innovatsion iqtisodiyotga o'tish bo'yicha qabul qilinayotgan strategik hujjatlar biznes va tadbirkorlik subyektlaridan yangi, barqaror va innovatsion biznes modellarini joriy etishni talab etmoqda. Shu jihatdan, yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror biznes modellarini shakllantirishda innovatsiyalarning rolini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur tezisda innovatsiyalarning yashil iqtisodiyot sharoitida biznes modellarini transformatsiya qilishdagi ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan yoritilib, barqaror biznes rivojini ta'minlashga qaratilgan konseptual yondashuvlar asoslab beriladi.

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes modellarining shakllanishi masalalari so'nggi o'n yilliklarda jahon ilmiy hamjamiyatining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan innovatsiyalar, resurslardan samarali foydalanish, ekologik mas'uliyat va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berishga qaratilgan.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari UNEP tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarda keng yoritilgan bo'lib, unda iqtisodiy o'sish ekologik xavfsizlik va ijtimoiy inklyuzivlik bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlanadi. UNEP tadqiqotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot sharoitida biznes subyektlari innovatsiyalar orqali resurslar samaradorligini oshirishi va ekologik bosimni kamaytirishi mumkin.

Barqaror biznes modellarining konseptual asoslari Michael Porter va Mark Kramer tomonidan ilgari surilgan "shared value" (umumiy qiymat yaratish) nazariyasida chuqur tahlil qilingan. Ularning fikriga ko'ra, korxonalar raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan innovatsion yechimlarni joriy etish orqali barqaror biznes modelini shakllantirishi mumkin. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni biznes strategiyasining markaziga qo'yish zarurligini asoslab beradi.

Innovatsiyalarning ekologik barqarorlikka ta'siri Joseph Schumpeterning innovatsiyalar haqidagi klassik nazariyasi bilan ham bevosita bog'liq. Olim innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilgan bo'lib, zamonaviy tadqiqotchilar ushbu g'oyani yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik toza texnologiyalar va "eko-innovatsiyalar" orqali davom ettirmoqda.

Barqaror biznes modellari masalasida Alexander Osterwalder va Yves Pigneur tomonidan ishlab chiqilgan biznes modeli konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida biznes modeli faqat daromad manbai emas, balki qiymat yaratish, yetkazib berish va iste'molchilarga taklif etish tizimi sifatida talqin qilinadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida ushbu model ekologik va ijtimoiy komponentlar bilan boyitilib, innovatsiyalar orqali barqarorlikka erishish imkonini beradi.

Aylanma iqtisodiyot va yashil biznes modellariga oid tadqiqotlar Walter Stahel ishlarida keng yoritilgan. Uning fikricha, innovatsion yondashuvlar asosida qayta foydalanish, qayta ishlash va chiqindilarni minimallashtirishga qaratilgan biznes modellar korxonalar uchun uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta'minlaydi. Bu yondashuv yashil iqtisodiyotning amaliy mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, OECD tadqiqotlarida innovatsiyalar yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy institutsional omili sifatida ko'rib chiqilib, davlat siyosati, yashil moliya va xususiy sektor hamkorligi barqaror biznes modellarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish ekologik samaradorlikni oshirish bilan birga biznesning global raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik va texnologik innovatsiyalarni joriy etgan kompaniyalar an'anaviy biznes yurituvchi korxonalarga nisbatan uzoq muddatda yuqori moliyaviy barqarorlikka ega bo'lmoqda. OECD tahlillariga ko'ra, resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llagan korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari o'rtacha 15–25 foizga qisqargan. Bu holat innovatsiyalarni faqat ekologik majburiyat emas, balki iqtisodiy samaradorlik manbai sifatida ko'rsatadi.

Barqaror biznes modellariga o'tgan kompaniyalar tashqi ekologik va tartibga soluvchi risklarga nisbatan ancha moslashuvchan hisoblanadi. World Economic Forum ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklar global biznes uchun asosiy xavf omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion va yashil yondashuvlarni joriy etgan korxonalar ushbu risklarni oldindan boshqarish imkoniyatiga ega bo'lib, bozor barqarorligini saqlab qolmoqda.

Statistik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yashil innovatsiyalarni faol joriy etgan kompaniyalar eksport bozorlarida yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lmoqda. Xususan, ekologik standartlarga mos mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar rivojlangan davlatlar bozorlariga kirishda kamroq to'siqlarga duch kelmoqda. Bu holat innovatsiyalarni strategik ustunlik manbaiga aylantiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror biznes modellarini shakllantirish jarayoni innovatsiyalar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ular biznesning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorligini taʼminlovchi asosiy omil hisoblanadi. Innovatsiyalar korxonalarga resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, ekologik risklarni kamaytirish hamda uzoq muddatli raqobatbardoshlikka erishish imkonini bermoqda.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, texnologik va tashkiliy innovatsiyalar asosida shakllangan biznes modellari anʼanaviy modellar bilan solishtirganda bozor oʻzgarishlariga nisbatan moslashuvchanroq boʻlib, barqaror qiymat yaratish salohiyatiga ega. Xususan, energiya samaradorligi, eko-innovatsiyalar va raqamli yechimlarning joriy etilishi yashil iqtisodiyot sharoitida biznes faoliyatining samaradorligini oshiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajribada (jumladan, OECD va UNEP yondashuvlarida) innovatsiyalar yashil transformatsiyaning strategik drayveri sifatida eʼtirof etiladi.

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Biznes subyektlari uchun yashil iqtisodiyot talablariga mos innovatsion biznes modellarini ishlab chiqish va joriy etishni strategik ustuvor yoʻnalish sifatida belgilash zarur.
2. Texnologik innovatsiyalarni (energiya tejamkor uskunalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, raqamli monitoring tizimlari) keng joriy etish orqali resurs samaradorligini oshirish va ekologik xarajatlarni kamaytirish lozim.
3. Tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalarini rivojlantirish, jumladan, ESG tamoyillarini biznes strategiyasiga integratsiya qilish orqali barqarorlik koʻrsatkichlarini yaxshilash maqsadga muvofiq.

Innovatsiyalar yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror biznes modellarini shakllantirishning muhim sharti boʻlib, ularning tizimli va izchil joriy etilishi biznes subyektlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini taʼminlashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: United Nations Environment Programme, 2011. – https://www.unep.org
2. OECD. Eco-Innovation in Industry: Enabling Green Growth. – Paris: OECD Publishing, 2010. – https://www.oecd.org
3. OECD. Green Growth Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2017. – https://www.oecd.org
4. Porter M.E., Kramer M.R. Creating Shared Value. – Harvard Business Review, 2011, Vol. 89(1/2). – https://hbr.org
5. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
6. Osterwalder A., Pigneur Y. Business Model Generation. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2010. – https://strategyzer.com
7. Stahel W.R. The Circular Economy: A User's Guide. – London: Routledge, 2019.
8. World Economic Forum. The Global Risks Report. – Geneva: WEF, 2023. – https://www.weforum.org
9. International Energy Agency (IEA). World Energy Outlook. – Paris: IEA, 2023. – https://www.iea.org
10. Geissdoerfer M., Savaget P., Bocken N.M.P., Hultink E.J. The Circular Economy – A New Sustainability Paradigm? – Journal of Cleaner Production, 2017, Vol. 143. – https://doi.org
11. Elkington J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. – Oxford: Capstone Publishing, 1997.
12. Jahon banki. Green Growth and Climate Change. – Washington, DC: World Bank, 2022. – https://www.worldbank.org
13. Ashurov A.R., Karimov B.A. Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li


## 2025-yil. navbatdan tashqari son


© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

